

**CHEY TILIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA
GENDER AHAMIYATI**

To`rayeva Dilafruz Maxammadjonovna

Farg`ona Davlat Uiverstiteti

Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) mutaxassisligi

2- kurs magistranti

Toshboyeva Barnoxon - Dotsent .

Pedagogika fanlari falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqiy muloqot malakalarini shakllantirishda gender xususiyatining o`ziga xosligi, uning yuzaga chiqish sabablari, jinslar o`rtasidagi muloqot jarayonida yuzaga keladigan turli xil psixologik va ijtimoiy sabablar haqida fikrlar keltrilgan. Ayollar va erkaklar muloqot jarayonida qanday til birliklarini qo`llashlari haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: shaxs, muloqot, gender munosabatlar, ayol va erkak nutqi, aspekt, gendereologiya, lingvistika, guruh, jinslararo munosabatlar.

Tilshunoslikda gender masalalarini o’rganishda nutqiy faoliyatning barcha ko’rinishlari: yozma va og’zaki matnlar tadqiqot ob’ekti bo’lib xizmat qilishi mumkin. Dunyo tilshunosligida bu masalalarga bag’ishlangan ishlar anchagina. “Gender” tushunchasi fanga biologic jinsning, erkak va ayolga ajratuvchi “jins” tushunchasidan ajratish uchun kiritilgan. “Gender” erkak va ayolning jamiyatdagi o`rni va rolini aniqlovchi tushunchadir. Bu ikki termini bir bioridan farqlaymiz.

“Gender” tushunchasi ingliz tiliga lotinchadan olingan “genus” so‘zidan olingan bo’lib “jins” jins degan ma`noni anglatadi. Bu tushuncha ikki hil talqin etiladi:

1.Jins yani biologik tushuncha

2.Ijtimoiy hodisa

Genderologiyaning faollashib borayotganligi va tadqiqotlarning paydo bo‘lishi uning nutq madaniyatiga daxldorligi bilan e’tiborni tortadi va bu borada tadqiqotlarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Negaki, nutq va nutq madaniyati erkak hamda ayollar jinsida o‘zining tafovutlar va farqlari i bilan ajralib turadi. Erkak va ayol nutqida lison va kalomning tasarruf etilish, ularning jinsiyyatfovutlari, ayniqsa, ijtimoiy mavqelariga daxldorligi bilan ham farq qiladi. Erkak yoki ayolning makon va zamondagi mavqeい, oila va jamiyatdagi nufuzi, qanday kasbkor bilan mashg‘ulligi, jamiyatdagi o`rni hamda darajasi va hakozo sharoitlar ularning nutqiga sezilarli darajada ta’sir etmay qolmaydi. Qolaversa, ularning yosh xususiyatlari, masalan, bolalik, o’smirlik, yoshlik, o’rta yoshlik va keksalik xolatlari ham nutqiy muloqot malakalarini rivojlanishida iz qoldirishi tabiiy hol. Keksa yoshliinson o’smirdek

so‘zlasa va tilda o‘smir istifoda etgan tilunsurlarini ishlatsa, qolipa sig‘maydi ayniqsa qiz bola ayollar jtimoiy tushuncha ifoda etadigan til unsurlarini o‘z nutqida qo‘llasa, kulgi ko`rinishi mumkin. Shuning uchun bularni bir xillikka keltirish aslo mumkin emas. Nutq madaniyati bilan bog‘liq sifatlar makon, zamon, psixologik muhit, muloqot qamrovi, dialekt va boshqa obyektlarning ta‘siri natjasida shakllanadi hamda individual nutq uslubi sifatida qaror topadi va shakllanadi. ”.

Muloqot jarayonida ayol va erkaklarga xoslikni aniqlash unchalik qiyin emas . Gender xususiyatlari haqida gap ketganda ayollar va erkaklar nutqida qo‘llaniluvchi leksemalarni qiyoslash ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslarning kuzatishlaricha, tildagi yangilanish jarayonlari ayollarga nisbatan erkaklar tomonidan tez qabul qilinib ular ilmiy va kasb-hunarga oid yangi leksemalar erkaklar nutqida ko‘proq va faolroq qo‘llanilishi aniqlandi. Suhbatni boshlash ,salomlashish jarayonining qisqa va lo`ndaligi, ba`zihollarda salomlashish jarayoni amalga oshmasdan to‘g’ridan to‘g’ri muddaoga o’tib ketish jarayonlari,salomlashish hamda hol-ahvol so‘rashish jarayonini nisbatan uzunligi ,suhbatning davomiyligi,oldindan rejalashtirilgan fikr va tushunchalarning bayon etilishi ko‘proq erkaklarga xos muloqot jarayonlaridir.Ayollarning muloqoti natijasidan erkaklarnikiga nisbatan muloyimroqlilik, salomlashish jarayonining uzunroqliligi, ko‘p hollarda salomlashish jarayoni amalga oshmasdan to‘g’ridan to‘g’ri muddaoga o’tib keta olmasliklari ,salomlashish hamda hol-ahvol so‘rashish jarayonini nisbatan uzunligi ,suhbatning imo ishoraga, bo`yoqdorlilikka boyligi aniq ravshan ayollarga xos ekanligi aks etadi. Aforizmlar, latifalar, maqollarning ko‘proq ishlatilishi ,sukut saqlash jarayonining uzunroq davom etishi, suhbat davomida uzun pauzalarning qo‘llanilishi ,suhbat jarayonida suhbatdoshning so‘zi kamroq bo‘linadi, odatda erkaklar suhbatdoshning fikrini oxirigacha eshitishadi .

Gender ko‘p aspektli tushuncha hisoblanadi. Shu bois gender bilan bog‘liq muammolar ko‘pgina sohalarning tekshirish ob’ekti hisoblanadi. Jumladan, sotsiologiya, psixologiya, kognitologiya, lingvistika kabi fanlarda gender turli aspektlarda tadqiq etilmoqda. Gender – ijtimoiy qurilma sifatida tilshunoslik fanida ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun gender eng ko‘p o‘rganilayotgan soha ham tilshunoslikdir.

Og`zaki va yozma nutq xosil qilishda gender omili til vositalarini tanlash va birlashtirishga bevosita xizmat qiladi.”Bu til sathida namoyon bo`ladigan erkak va ayol nutqi o`rtasida ma`lum farqlar mavjudligini ,ya`ni so`z boyligi (erkaklar va ayollar lug`atini tashkil etish xususiyatlari),fonetika morfologiya ,imlo,sintaksis kabi til xodisalari bilan xarakterlanadi”.[1]

Nutq o`z tabiatiga ko`ra nutq madaniyati ham erkak ayol so`zlashish uslublari bir-biridan farqlanadi.Erkak va ayollar nutqida Grammatik nuqtai nazardan qaralganda ,erkaklar nutqida muataqil so`z turkumlaridan ot hamda fe`llar, son va ravishlar

,ayniqsa unov so`zlar ko`proq ishlatilishi kuzatiladi.Ayollar nutq madaniyatida esa ,hususn olmoshlar,fe`llar,yuklamalar,e`tiket so`zlar ishtirok etadi. Ayollar va erkaklar nutqining o`ziga xosligi ular nutqida qo'llanilgan jumlalarni taqqoslaganda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayollar suhbatdoshining fikriga qo'shilish yoki qo'shilmasligini hamda shaxsiy munosabatlarini ifodalar ekan, suhbatdoshini hafa qilib qo'ymaslik uchun ehtiyyot bo'lib jumla qurishadi, ya'ni o'z e'tirozlarini, noroziliklarini ifodalash uchun tilning sintaktik qurilishida mavjud bo'lgan neytralroq konstruksiyalar, qoliplar aks etadi. .Ayollar va erkaklar nutqining o`ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri ayollarning erkaklarga qaraganda ko`proq nutqiy muloqotda xushmuomala bo'lishga, odob saqlashga, suhbatdoshiga nisbatan hurmat ko'rsatishga harakat qilishlaridir. Ayol va erkaklarning yozma hamda og'zaki nutqidagi tafovutlari yuqoridagilar bilan cheklanmaydi. Ushbu farqlarning asosida jinslarning psixologiyasi, tafakkuri o'rtasidagi farqlar, jamiyatdagi gender parametrlarini belgilovchi normalar jamiyatda insonlarning ongi va tafakkuri, ijtimoiy-ma'naviy qarashlari asosida shakllanadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, faqatgina ayollargagina xos bo'lgan so'zlashuvning gender xususiyatlari, ayrim horijiy tillarda ikkala jins vakillariga ham xos bo'lishi mumkin. Bu fikrni dalillash kelgusida o'zbek tilining gender xususiyatlarini o'rganuvchi tadqiqotchilar zimmasiga tushadi.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy muloqot malakalarini takomillashtirishda gender xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Umumiy xulosalarga keladigan bo'lsak:Gender ko'p aspektli tushuncha hisoblanadi. Shu bois gender bilan bog'liq muammolar ko'pgina sohalarning tekshirish ob'ekti hisoblanadi. Gender – ijtimoiy qurilma sifatida tilshunoslik fanida ham o`ziga xos o'rinn tutadi. Shuning uchun gender eng ko'p o'rganilayotgan soha ham tilshunoslikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nikolaevich, U. P., & XXX, S. A. (2022). Emotional Intelligence and its Adolescents Being an Exemplary. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 15, 139-14/.
2. Йосупов, У., & Ермаматова, Г. (2022). Deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 448-450
3. Salim o'g'li, Y. U. (2022). PSIXOLOGIK AXBOROT XAVFSIZLIGI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 66-72.
4. Umidjon, Y., & Muhlis, G. A. (2023). O'ZBEK XALQINING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. conferencea, 53-59.
5. Xrestomatiya po kursu «Osnovy gendernykh issledovaniy» I.CHkalova. – M.: MTSGI, 2000.
- 6.<https://cyberleninka.ru/article/n/kommunikativno-pragmatischekie-aspekyproyavleniya-ekspressivnosti-v-muzhskikh-i-zhenskih-korotkih-elektronnyhsoobscheniyah>
7. <https://en-academic.com/dic.nsf/enwiki/>